



O‘ZBEK AKADEM TIL XUSUSIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

Hakimov Dilshodbek Yo‘ldoshevich

Alisher Navoiy nomidagi

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17450576>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilm-fan tili va akadem til tushunchalari, shuningdek, akadem tilni tizimli o‘rganish masalalari tahlil qilindi. Tadqiqotda O‘zbekiston hududida akadem tilning shakllanish jarayoni va hozirgi davrdagi rivojlanish holati ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada tilning akadem maqomga ega bo‘lishi uning xalqaro miqyosdagi nufuzini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ilmiy terminlarning turli ijtimoiy qatlamlar nutqiga singib borayotgani, maxsus maktablar va bir necha o‘nlab oliy ta‘lim muassasalarining faoliyat yuritayotgani, ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani ona tilimizning ilm-fan tili sifatida rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Maqolada, shuningdek, avlodlarning ilmiy dunyoqarashi va xalqning akadem tafakkuri jamiyyat taraqqiyotiga bevosita ta‘sir etuvchi omil sifatida tahlil qilindi

Kalit so‘zlar: Til, ona tili, ilm-fan tili, akadem til, olimlar, tadqiqotchilar, nazariya, amaliyot, til tizimi, oliy ta‘lim.

Jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini - *Fuqarolik instituti, jmoatchilik instituti, ota-onalar universiteti, oila instituti, mahalla instituti* tarzida nomlanishi va nomlarning tarkibida *institut, universitet* kabi birliklarning mavjudligi mazkur yo‘nalishlarda ilmiy, akadem yondoshuv shakllanayotganligini anglatadi.

Mavjud voqelikning ilmiy asosiga e‘tibor qaratish, muammolarning ilmiy yechimlari ustida ishlashning natijasi o‘laroq mamlakatda o‘nlab yangi yo‘nalishlardagi oliy ta‘lim muassasalari shakllantirilib, qator xalqaro nufuzli univyersitetlarning filiallari ochildi. Ularda talabalar qabuli yildan-yilga oshib bormoqda. Axborot tyexnologiyalari sohasining takomili, tarmoqlarning raqamlashtirilishi, muayyan sohada qilinishi lozim bo‘lgan ishlarning aniq muddati belgilangan - yo‘l haritasi kabi o‘nlab yo‘nalishlarda ilmiy asoslangan rejalarga tayangan holatda ish yuritilishi xalqning, millatning, butun bir avlodning ilmiy salohiyatini, akadem dunyoqarashini yuksaltirish yo‘lidagi tizimli ishlarning bir qismi hisoblanadi.

Ana shu tarzda mamlakat axolisining, millatning ilmiy dunyoqarashi, ilmiy tafkkuri, akadem fikrining yuksalishi - hozirgi sharoitda milliy tilimizning ilmiylikka, akadem tilga tomon taraqqiy etib borishini ta‘minlaydi [Alimjonov, *til.gov.uz/ 161*]. Yoki mamlakat rahbarining so‘zi bilan aytganda, ona tilimizni ilm-fan tili sifatida rivojlantirish uchun zamin yaratiladi [Mirziyoev – 2022 yil, 21.10]. Uni tabiiy ravishda - *yunor, arab, lotin, fransuz, xitoy* tillari kabi abadiylikka muhrlaydi.



Mazkur jarayonlar Davlat tilini rivojlantirish departamenti, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda tarkibida ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik, idora va boshqa mutasaddi tashkilotlar aynan o'zbek ilm-fan tili masalasida o'z dasturlarini ishlab chiqqan bo'lsalar kerak, degan fikrga olib keladi. Zero ilm-fan tili - akadem til sifatida tizimli yondoshuvni talab qiladi.[Teleshevskaya, 2017:35].

Akadem til: 1) nazariya, amaliyot; 2) ijrochi, iste'molchi; 3) o'rganish va o'zlashtirish bosqichlari tarzidagi, biri ikkinchisini taqozo qiladigan va to'ldirib boradigan uzvlarning tahlili, tahlilga turli rakurslardan yondoshuvda u (o'zbek ilm-fan, akadem tili)ning darajasi namoyon bo'lib boradi.

Akadem til nazariyasi – darslik va qo'llanmalar, darsning dasturi va rejasi; ilmiy maqola, tezis, dissertatsiya, avtorefyerat, monografiya va taqrizlar kabi manbalarda ko'rinadi. Akadem til amaliyoti – oliy ta'limdagi darslarda, dissertatsiyalarning seminarlari va himoyalarda, monografiyalar muhokamasi yoki taqdimotidagi nutqlar, malaka oshirish va qayta tayyorlash, mansab, lavozim o'qishlaridagi munozaralarda namoyon bo'ladi.

Ijrochi – fanning muayyan yo'nalishidagi o'qituvchi va murabbiylar, dissertantlar, olimlar, professorlar, akademiklar. Iste'molchi – barcha toifadagi talabalar, tadqiqotchilar, doktorantlardan to kasbiy tayyorgarlikka o'qiyotgan, malaka oshirish tinglovchilarigacha.

Akadem tilni o'rganish va o'zlashtirish: birinchidan, oliy ta'lim – bakalauriat va magistratura bosqichlarida; ikkinchidan, doktorantura – fanning muayyan yo'nalishi bo'yicha falsafa doktori (fan nomzodi), fan doktori kabi ilmiy darajalar hamda dotsent, professor, akademik kabi ilmiy unvonlariga erishish yo'lidagi harakatlarda; uchinchidan, qayta tayyorlash va malaka oshirish kabi tizimning uzviyligi, ana shu mexanizmning har biri mo'tadil ravishda ishlashi akadem tilning takomilida muhim rol o'ynaydi. Muayan tilda akadem fikrni aks ettirish o'ziga xos murakkab jarayon, ya'ni: 1) empirik bosqichda - qaysidir tilni (jumladan ona tilini) yetarli darajada o'zlashtirish; 2) o'rta bosqich - ana shu tildagi manbani mutolaa qilib tushunish, anglab yetish; 3) yuqori bosqich - manbadagi akadem fikrni idrok etish va xis qilish; 4) kuliminatsion bosqich - manba mavjud bo'lgan tilida ilmiy, akadem fikrni yozma va og'zaki tarzda to'kis bayon qilish kabilarning har biri alohida-alohida salohiyat, ko'nikma talab qiladigan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan boshqa-boshqa maktablar sifatida iste'molchining tilni o'zlashtirganlik darajasini ko'rsatib beradigan mezon vazifasini o'taydi.

Asrlar davomida ob'yektiv ijtimoiy-siyosiy vazitlarga ko'ra ajdodlarimiz ilmiy merosini o'zga tillarda yaratilganlar. Makur voqelik, kamdan-kam insonlar va



xalqlarga nasib qiladigan - ona tilida imkoni bo‘lmagan holatlarda ham, akadem ong, ilmiy tafakkur shu mintaqada yuqori notalarda shakllanganligidan dalolat beradi.

Hozirgi o‘rta hamda kaksa avlod ilm axli guvohi bo‘lgan yaqin o‘tmishda, sobiq imperiyaning til siyosatiga ko‘ra uning tasarrufidagi gurjuston, armaniston va boltiq bo‘yi jumhuriyatlaridan tashqari hamma respublikalarda ilm-fanning barcha yo‘nalishlarida hatto milliy tilga oid tadqiqot ishlari ham rus tilida himoya qilinishi, hujjatlashtirilishi shart va majburiy bo‘lgani ma‘lum. Shunga ko‘ra, tabiiy ravishda olimlar o‘z tadqiqotlariga oid o‘zga tillardagi manbalarni puxta o‘rgan (1), idrok eta olgan (2), o‘rganilgan manbalar tilida ilmiy ishni yozgan (3). Ammo, ayrim hollarda maslaning eng murukkab jihati, ya‘ni ilmiy ishni himoya qilish(4)da tadqiqotchi o‘zining rus akadem tilidagi nutqiy ko‘nikmasi, ba‘zan mentalitet yoki tadqiqot ob‘yektining geografik muhiti, ayrim mavzularning dolzarbligi rus tilida yetarli darajada aks etmay qolishini hisobga olgan holda ilmiy izlangishlarini o‘zbek tilida yaratgan holatlar ham bo‘lgan. Ishning ilmiy kengash oldidagi himoyasigacha bo‘lgan jarayonlar, hatto himoya ham auditoriyaning ko‘tarishiga ko‘ra ona tilda o‘tkazilgan. Kengash a‘zolari tadqiqotni ilmiy yangiligi va dolzarbligini ma‘qullab 100% ovoz bergan. Biroq zahmatkash olimning zimmasida ta‘kidlab o‘tilgan muammo, ya‘ni o‘sha davrida “VAK” deb atalgan - Oliy atestatsiya kommissiyasi (“markaz”)ga jo‘natiladigan hujjatlar: stenagramma, dissertatsiya, avtoreferat va ishning ilmiy yangiligi va salohiyatini aks ettiradigan boshqa barcha hujjatlar bazo‘r kunini o‘tkazayotgan tadqiqodchining mablag‘i evaziga shu soxaga ihtisoslashgan shaxs tomonidan rus tilida mahsus tayorlangan va yuqoriga yuborilgan. Markazdan ilmiy ishning tasdig‘i olingan, ba‘zan olinmagan holatlar ham bo‘lgan. Tadqiqot ishi izidan u yurtlarga borib kelishni ko‘pchilikning hamyoni ko‘trmas, ko‘targanda esa, ularga “yo‘l” topish muammomsini ko‘ndalang bo‘lar edi.

Voqelikni keltirishdan murod – kuzatganimizdek, qonxo‘r tuzim davrida ham qator olimlar o‘zlarini qurbon qilish evaziga o‘zbek akadem tili yetarli darajada shaklanishiga katta xissa qo‘shganlarini, faqat siyosiy tuzim o‘zbek tilining, o‘zbek akadem tilining ro‘shnolik ko‘rishiga yo‘l bermaganligini ko‘rsatishdan iborat edi. Ya‘ni shoir aytganiddek:

*Voiz dedi – taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo‘qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda.[4:46].*



Endilikda, allaqachonlar lozim darajada shakllanib bo'lgan, o'zbek akadem tilini zamon bilan hamqadam tarzda odimlashini ta'minlash ustozlar olidida turgan muhim masalalardan hisoblanadi.

Ayni payitda, mamlakatdagi barcha ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarga oid darslik va qo'llanmalar, ilmiy asarlar davlat tilida mavjud. Asrlar osha yetib kelgan ajdodlarning har qanday ilmiy myerosini hozirgi o'zbek ilmiy tiliga o'girab berishga qurbi yetadigan olimlarimiz ham bor. Ilm-fanning so'ngi yutuqlariga bag'ishlangan asarlar, mongrafiyalarni hozirgi o'zbek adabiy tilida dunyo yuzini ko'rishi yo'lida tinimsiz izlanayotgan fidoiy olimlarimizning samarali mehnatlarini ham ko'pchilik ilm ahli ko'rib turibdi. Ajdodlarimiz ilmiy me'roslari yaratilgan – arab va rus tillari bundan tashqari xitoy, ingliz, ispan tillari asrlar davomida yetarli darajada shakllangan, sayqallangan. Natijada ularda so'zlashuv nutqi bilan akadem til orasidagi masofa nisbatan yaqinlashgan. Shuning uchun ham ana shu tillarda akadem tilning nazariy tushunchasi til egalarining emas balki boshqa tilda so'zlashuvchilarni, talabalarni mazkur tilda tarbiyalash bilan bog'liq tadqiqotlar natijasida paydo bo'lganligiga e'tibor qaratiladi [Grigorenko, 2015: 73].

Akadem tilning birinchi bosqich tizimida darslik va qo'llanmalar ma'lum ma'noda talab darajasida deb aytish mumkin. Biroq amaliyotda, aksar maktablarda darsning borishi jarayonida ilmiy til ikkinchi planga tushib, so'zlashuv nutqi faollashishi holati ilm oluvchida akadem til ta'limining zaiflashishiga sabab bo'layotgan qusirlarning eng asosiysi bo'lishi mumkin.

Milliy akadem tilning barqaror rivojlanishi uchun: Birinchidan, shaxsan Davlat rahbarining o'zi ilmga aloxida e'tibor qararatayotgani hisobga olib farzandlarga domiy ravishda ota-onalari va yaqinlari tomonidan ilm yo'lining kelajagi porloq ekanligini: Qur'onda va hadislarda, shuningdek xalq og'zaki ijodi namunalarida haqiqiy ilm egalari molu davlatdan va nafsdan ustun turishi e'tirof etilgan – *Ilimdan o'zga najot yo'q; Ilm agar Chinmochinda berilayotgan bo'lsa, u yerga bor!* yoki *Ilimli ming yashar, ilimsiz bir yashar*, tarzidagi yuzlab umrboqiy qarashlarni singdirib borishi lozim. Ikkinchidan, o'rta maktablarda dars jarayoni to'la ilmiy uslubda, oliy ta'limda esa akadem tilda borishi shart [Hakimov, 2024:26] va zarur. Zyero taraqqiy etgan dunyo qora va arzon ishchi kuchiga emas balki malakali mutahassislarga, olimlarga doimo muhtoj. Uchinchidan, radio va televidenyada, hozirda vertual olamda berilayotgan ma'lumotlar butun millatning, insoniyatning ruhiyatiga tez ta'sir qiladigan, kishilarning saviyasini tushirish yoki ko'tarishda asosiy vositalardan biri ekanligini hisobga olgan holda ayni yo'nalishlarda ilmiy masalalar, ilmiy muvaffaqiyatlarga aloqador mavzularni ko'paytirish lozim.



To‘rtinchidan, shoirlar va yozuvchilarning asarlari, badiiy filmlar markazida ilmga rag‘bat ko‘rinib turishi kerak bo‘ladi.

Jumladan, adabiyotimizda: *Ona tilim o‘lmaydi* [shye‘ri E.Vohidov], *Hakim va ajal dramatik dostoni* [A.Oripov], *Jadidlar* shye‘ri [I.Mirzo]; “*Navoiy*” [Oybyek], *Yuduzli tunlar* [P.Qodirov], *Diyonat* [O.Yoqubov], *Qo‘rqma* [J.Javliyev] romanlari kabi markazida ilmiylik va milliy g‘urur yetakchilik qilgan asarlar ko‘proq yaratilishi va ularning targ‘iboti keng ko‘lamda amalga oshirilishi lozim bo‘ladi.

Xalq orasida mashhur bo‘lgan - “*Kelinlar qo‘zg‘aloni*” [S.Ahmad, O‘zbekfilm 1984 y.] asarida o‘g‘illar va kelinlarning barchasi o‘qimishli, ziyoli kishilar. “*Oltin dyevor*” [E.Vohidov] peysasida yoshlar oliy ma‘lumotli hamda voqelikni to‘g‘i baholay oladigan avlodlar. “*Suyunchi*” [rejissor M.Afzalov, O‘zbekfilm] filmida Anzirat buvi – “*qani hammang qo‘lingga kitob ol...*” degani, katta nabirasini “*professor*” deb atashi, sovcilikka borganlarida qizlarning ikkitasi inistitut talabasi, uchinchisi abituriyent. “*Nazira student bilan gaplashib turibdi*” va keyinchalik Nazira ham Tibbiyot texnikumiga o‘qishga kirgan. “*Tyemir xotin*” [Sh.Boshbekov, O‘zbekfilm] asarning markazida ilmiy tadqiqotning samarasi turgani kabi qator epizodlar orqali avlodlarda ilmga, akadem ongning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishga harakat qilingan deyish mumkin.

Ilmiylik va ilmga intilish turli qiziqarli voqeliklarga yo‘g‘irilgan holatlarda berilganligi bois ko‘p davrlar o‘tib, siyosiy tuzimlar o‘zgarsada kishilar e’tiborini o‘ziga tortaveradigan “*Dushanbagacha bir gap bo‘lar*” [M.Gorkiy nomidagi kinostudiya, birinchi ijodiy uyushma 1968 y], “*Indingi kun jadvali*” [Belorusfilm 1978 y.] filmlarida iqtidorli o‘quvchilar va ilmiy izlanishlar olib borayotgan o‘qtuvchilar voqelik markazida bo‘ladi. “*G‘aroyib bola*” [M.Gorkiy nomidagi kinostudiya, ikkinchi ijodiy uyushma 1968 y.] filmida qishloqdan chiqqan, mehnatkash, iqtidorli talaba (*Garoxov*)ning faoliyati aks ettirilgan. “*Ishqdagi ishq mojarosi*” (Mosfilm 1978 y) filimida voqealar to‘laligicha ilm egalari tashkilotida bo‘lib o‘tadi. “*Ivan Vasilovich o‘z kasbini o‘zgartiradi*” [Mosfilm 1973 y.] filmi ham ilmiy xodimning kashfiyoti asosiga qurilgan. Shu va shu kabi qator asarlar borki ta’kidlab o‘tilganidek ularga ilm va ilmga da’vat sigdirib yuborilganligi bois qancha zamonlar o‘tsada hali hanuz tomoshabin e’tiboridan, ekranlardan tushmaydi.

Janubiy koreyaning “*Jumo‘ng*” badiiy filmi [Chrokbaem media, oliv 9. 2006 y.] yaratilganidan buyon muntazam ravishda televideniya orqali namoish qilib borilishi bois o‘zbekistonda yoshu qari “*Jumo‘ng*”ning kim ekanini judayam yaxshi biladi. Ammo vatani va xalining kelajagi uchun o‘z jonini tikkan jadidlarning o‘sha davr jahon sahnasida, millatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida tutgan o‘rnini bilmaydi.



Boshqacha aytganda yurtimizda jadidlar va Jumo'ngni biladiganlar statistikasi o'tkazilsa, Koreya filmi qahramoni tosh bosishi aniq. Shuning uchun ana shunday yoki undanda xalqchilroq, mayda maishiy muammolardan xoli tarzda jadidlarning, akademiklarning va xalqimizning ziyoli farzandlari, fan olimpiadalari g'oliblari, kashfiyotchilarimizning muvoffaqiyatlariga bag'ishlangan asarlar yaratilishi va "Jumo'ng", "Qish sonatasi", "Sevgi iztiroblari", "Qo'rg'on sirlari" kabi inson umrini o'g'irlyadiga filmlar o'rniga ilmga, kitobxonlikka chorlovchi asarlar, filmlar ko'rsatuvlar yaratilishi, ekranga chiqarilishi vertual olamga joylashtirilishi zarur. Badiiy filmlar maishiy muammolardan ilmiy mavzularga yo'naltirilishi xalq orasida akadem savodxonlikning, akadem tilning takomiliga katta xissa bo'lib qo'shiladi. Shundagina oradan o'n-o'n besh yillar o'tar ilm dunyosida shu yurt farzandlari yetakchilik qila boshlashi shubhasiz.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon hozirgi kyecha-kunduzda ilmiy izlanishlar ostonasida turgan avlodlar uch-to'rt horijiy tillardagi manbalar bilan tillasha olishini dolzarb qilib qo'ya boshladi. Aks holda o'rtamiyonalikdan nariga o'tib bo'lmaydi. Olimlarimiz o'z tadqiqotlarini zamon talab qilayotgan tillar bilan bir qatorda hozirgi o'zbek tilida ham parallel yoritib, Vatan va xalq oldidagi farzandlik burchini his qilgan holda - til masalasida biryoqlamalikka og'ib ketmasdan *Bu qasidam senga xalqim, Oqsutu tuz hurmati.*[7: 8], harakat qilishlari lozim bo'ladi. Ya'ni: 1) respublika hududida bajariladigan barcha ilmiy tadqiqotlar: dissertatsiyalar himoyasi va monografiyalar nashri birlamchi Davlat tilida; ikkilamchi zarur bo'lgan horijiy tillarda chop qilinishi; 2) chet ellarda ilmiy izlanishlar bilan band bo'lgan yurtimiz farzandlarining tadqiqot natijalari respublikada O'zbek tilida chop qilinishi; 3) butun dunyoda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalari va kashfiyotlarni zudlik bilan respublikadagi tegishli soha mutaxassislari tomonidan o'zlashtirish va uni mahalliyashtirish hamda rivojlantirish ishlari tizimini qonun bilan mustahkamlab qo'yish, bu ishni amaliy natijalari xususida muayyan vazirliklarning senat oldida doimiy xisoboti yo'lga qo'yilishi lozim.

Ana shunda: Birinchidan, qadimdan davom etib kelayotgan milliy ilmiy til masalasidagi oqsoqlikka barham beriladi. Ikkinchidan, uchinchi renosansda o'zga tillar bilan bir qatorda milliy tilimizning bevosita ishtiroki ta'minlanadi. Uchinchidan, milliy ilmiy til masalasida avlodlarga keng yo'l ochiladi. To'rtinchidan, millatning asosiy belgilaridan biri bo'lgan ona tilimiz qo'sh qanot bilan sarhad bilmay yuksaklarga parvoz qiladi [6:127]. Shundagina uchinchi (rennesans) uyg'onish davri dunyo tamaddunini yangi pog'onaga ko'tara oladigan ilmiy izlanishlar o'zbek olimlari tomonidan amalga oshiriladi. Zamonaviy ilm-fanning so'ngi yutuqlari



hayotga tadbiiq qilinadi. Vatanimiz qisqa muddatlarda rivojlangan davlatlardan-da o‘tib, xalqning turmush darajasi juda tez suratlarda yuksaladi.

Aks holda, asrlar o‘tib hozirgi “katta millat”lar – “kichik millat”ga, qaysidir “kichik millat”lar – “katta millat”[9: 55]ga aylanib, ilm yo‘lidagi zurriyotlarimiz birato‘la – ham qadimgi, ham hozirgi ajdodlarining ilmiy merosidan vositachi shaxs yoki vositachi tillar orqali xabar topadigan, asl mohiyatdan bebahra mutaxassis bo‘lishlari ehtimoli yuqori.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoev – Toshkent, 2022 yil, 21 oktabr. Sputnik. <https://president.uz/uz/lists/view/5627>.
2. Alimjonov B. O‘zbek tilining hozirgi holani va kelajagi. <http://til.gov.uz/uz/nevsand-announcements/anons/161>.
3. Teleshevskaya, A.M., Parshikova, L.A., Academic writing as an important component of learning a foreign language at a non-linguistic university // “Modern Science” 2017, №2. 35-p.
4. Vohidov E., Saylanma. She’r dnyosi, ikkinchi jild. Ona tilim o‘lmaydi. Toshkent: “Sharq” - 2001 y., 46-b.
5. Margaret Grigorenko. A Briaf Infarmation to Academic Language 2015 Cedarville University. Education Faculty Publication, 73. <http://digitalcommons.ctdarville.edu/education-publications/73>.
6. Hakimov D. Ilmiy til – tilning umrdoqiyligini ta’minlovchi asosiy vosita. Adabiy me’ros 2024-y. 1-son126-131-b.
7. Vohidov E., O‘zbekim “Yangi asr avlodi” 2017-y. 8-b.
8. Hakimov D. Ilmiy til – tilning umrdoqiyligini ta’minlovchi asosiy vosita. Adabiy me’ros 2024-y. 1-son126-127-b.
9. Muhammad Yusuf, Saylanma. -Toshkent: Sharq 2018-y. 55-b.